

**AHMAD LUTFIY QOZONCHINING "O'GAY ONA"
ROMANI OBRAZLARI TAHLILI**

*Bektemirova Muslima Sherali qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali talabasi
Email: muslimabektemirova05@gmail.com*

Annotation. Maqolada Ahmad Lutfiy Qozonchining "O'ga yona" romani tahlil doirasiga tortilgan. Romandagi murakkab ijtimoiy hayot, qahramonlar (o'gay ona, Ismoil, Saniha, Eldorbek, Fotimaxon) o'rtasidagi murakkab psixologik munosabatlar o'rjanilgan. Oila a'zolarining eng og 'ir sharoitlarda ham o'zaro munosabalarda hissiy kechinmalarini to'g'ri boshqarishi, kechirimli bo'lishi va hamdard bo'lishi kabi axloqiy-tarbiyaviy sifatlarning muhimligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. O'gay ona, psixologik drama, oilaviy munosabatlar, sevgi va nafrat, bolalar tarbiyasi, inson ruhiyati, qarama-qarshi kuchlar, zulm va jabr, o'zini anglash, tarbiya, hissiyotlar, vaziyatlarning murakkabligi.

**АНАЛИЗ ОБРАЗОВ РОМАНА «МАЧЕХА»
АХМАДА ЛУТФИЯ КАЗОНЧИ**

*Бектемирова Муслима Шерали кызы,
Студентка Ташкентского международного университета Кимё Самаркандинского
филиала*

Аннотация. В статье анализируется роман Ахмада Лютфия Казанчи «Мачеха». В романе исследуются сложные социальные и психологические взаимоотношения персонажей (мачеха, Исаил, Саниха, Элдорбек, Фатимахан). Обращается внимание на важность таких морально-нравственных и воспитательных качеств, как умение членов семьи правильно справляться со своими эмоциональными переживаниями в отношениях, прощать и проявлять сострадание даже в самых сложных обстоятельствах.

Ключевые слова. Мачеха, психологическая драма, семейные отношения, любовь и ненависть, воспитание детей, человеческая психика, противоборствующие силы, угнетение и страдание, самосознание, воспитание, эмоции, сложность ситуаций.

\
**ANALYSIS OF IMAGES IN THE NOVEL "STEPMOTH"
BY AHMAD LUTFIAH KAZONCHI**

*Bektemirova Muslima Shereli qizi,
Student of the Tashkent international university of Chemistry Samarkand branch*

Annotation. The article analyzes Ahmad Lutfiyya Kazanci's novel "Stepmother". The novel explores the complex social and psychological relationships of the characters (stepmother, Ismail, Saniha, Eldorbek, Fatimahan). Attention is drawn to the importance of such moral and educational qualities as the ability of family members to properly cope with their emotional experiences in relationships, forgive and show compassion even in the most difficult circumstances.

Keywords. Stepmother, psychological drama, family relationships, love and hate, child rearing, human psyche, opposing forces, oppression and suffering, self-awareness, upbringing, emotions, complexity of situations.

**"ÜVEY GEVE" ROMANINDAKİ İMAJLARIN ANALİZİ
AHMAD LUTFIYA KAZONÇI**

Bektemirova Muslima Şerali kızı,
Taşkent Uluslararası Kimya Üniversitesi Semerkant Şubesi öğrencisi

Özet. Makalede Ahmed Lütfiy Kazancı'nın "Oga Yona" romanı incelenmektedir. Roman, karakterlerin (üvey anne, İsmail, Saniha, Eldorbek, Fatimahan) karmaşık sosyal ve psikolojik ilişkilerini ele alıyor. Aile bireylerinin ilişkilerinde yaşadıkları duygusal deneyimlerle doğru şekilde başa çıkabilme, en zor durumlarda bile affedebilme ve şefkat gösterebilme gibi ahlaki ve eğitici niteliklerin önemine dikkat çekiliyor.

Anahtar kelimeler. Üvey anne, psikolojik dram, aile ilişkileri, aşk ve nefret, çocuk yetiştirmeye, insan ruhu, karşıt güçler, baskın ve acı, öz farkındalık, yetiştirmeye tarzı, duygular, durumların karmaşıklığı.

Ahmad Lutfiy Qozonchining "O'ga yona" romani o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rincini tutadi. Roman bir necha murakkab ijtimoiy va psixologik masalalarini yoritib beradi. Unda oilaviy munosabatlar, ona va bola o'rtasidagi hissiy bog'lanish, shuningdek, shaxsiy o'sish, qiyinchiliklarga qarshi kurashish va sabrli bo'lish. Insonning ruhiy dunyosi, qarama-qarshi kuchlari, oilaviy aloqalar va uning psixologik holatlari, o'gay ona tomonidan zulm va bevaqt sevgi bilan tarbiya qilingan bolalarning hayotidagi qayg'ular va mashaqqatlar hikoya qilinadi. Asar bosh qahramoni, o'gay ona, o'z farzandlariga nisbatan nohaq munosabatda bo'lishi, ularning hissiy holatini to'g'ri tushunmasligi va o'z nafratini ularga yo'naltirish orqali yoritiladi. O'gay ona, o'zining shaxsiy umidi va orzulari orqali bolalarini sevishni o'rgatishga harakat qiladi, lekin uning ichki injiqliklari va stresslari farzandlarining hayotiga qanday ta'sir qilishini ko'rish mumkin. Bundan ko'rish mumkinki oilaning ahamiyati, ota-onaning roli, va bolalar tarbiyasidagi muammolarni ochib beradi. Shuningdek, murakkab hissiyotlar, chinakam sevgi, nafrat o'zini anglash, haqiqat va yolg'on kabi masalalar ustida to'xtaladi va ijodkorning hayotiy-falsafiy qarashlarni ochib beradi.

"O'gay ona" romanida bir necha obrazlar bor. Bu romandagi bosh qahramon Ismoil. Ismoil – romanning asosiy qahramoni bo'lib, o'gay ona tomonidan qyinoqqa solingan va shuning natijasida og'ir psixologik holatga tushgan bola. Uning hayoti oilaviy aloqalar va ijtimoiy muhitdagiadolatsizliklar bilan chambarchas bog'liq. Ismoil o'zining og'ir taqdiri va o'gay onaning zulmi bilan kurashishga majbur bo'ladi.

Saniha – Ismoilning o'gay onasi, u yosh bolaga nisbatan beg'araz, achchiq va shafqatsiz munosabatda bo'ladi. Uning obrazida o'gay ona tasviri, mehri va g'amxo'rliqi yo'qligi, ziddiyatlari hissiyotlar va insoniyligi yo'qligi aks etadi. Sanihaning xulqi roman davomida o'zgarib borsa-da, uning o'ziga xos tajribasi va qarashlari asosiy voqealarga ta'sir qiladi.

Eldorbek – Ismoilning otasi bo'lib uning bolalik davrida ota-onasi o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligi va oilaviy nizolar mavjud. Ismoilning otasi o'z farzandi tomonda bo'lishning o'rniga xotin tarafga o'tib olgan, ya'ni qo'pol qilib aytkanda "xotin quli" bo'lib olgan otani ko'rish mumkin.

Fotimaxon – 19 yoshli Fotima ismli qizning insofli, diyonatli, iymonli va mehribonligini ko'rish mumkin. Farzandlariga bergen diniy va dunyoviy ilmi hamda yetim bolalarning baxtli taqdirini tasvirlash mumkin. Romanda o'sha davrning jamiyatida mavjud bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, ularning orasidagi farqlar,adolat va tenglikning yo'qligi aniq ko'rsatilgan. "O'gay ona" romanida oilaning ichki hayoti va oilaviy munosabatlar ham o'zining maxsus ahamiyatiga ega. Oila ichidagi qat'iy hiyla- nayranglar, mehr-muhabbat va nafrat o'rtasidagi ziddiyatlar hamda ota – ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar chuqur yoritilgan. Jamiyat va oilaning o'zgarishini, zamonaviylikka qarshi kurashayotgan an'anaviy qadriyatlarini, o'zgarishlar va yuzaga kelayotgan ziddiyatlarni yoritishda muhim o'rincini tutadi.

Insoniyat uchun holis va samimiy xizmat qilayotgan, insonlarga bag'ishlangan. Bu roman Turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchining qalamiga tegishli bo'lib, romanda husn va ilm-u odobi benuqson bo'lgan 19 yoshli Fotima. O'zi kichik bo'lsa-da dard-u g'ami belini sindiradigan

darajada hayot achchiqlarini juda ko‘p totgan, ona mehri va ona shafqatini unutgan yetim Ismoil hamda “*Ochqolmay o'l, zaxar ye, zaqqum yut*” so‘zi og‘zidan tushmaydigan o‘gay ona Sanihaxonim va Eldorbekdek hayotga yengil qaraydigan, kaltafahm insonlar hayoti yoritilib o‘tilgan va shuni takidlash joizki, o‘sha davrdagi qizlar tarbiyasiga, odob-axloqi, yigitlarning iymonli, e’tiqodli bo‘lib kamol topishga, bir so‘z bilan aytganda kelajagiga e’tibor qaratilgan.

Ismoilning o‘gay onasi shu qadar shafqatsiz, vijdonsiz, bemehr, faqat o‘zi uchun yashaydigan inson ko‘z oldimizda gavdalanadi. Ismoilning yolg‘iz aybi – onasining o‘lgani va yetimligi. Aslida Ismoilga bu yoshida parvarish, ona mehriga muhtojligi, g‘amli yuragiga mahzun, ko‘ngliga malham zarur edi. Lekin qani u mehrbon inson?! Insoniylik amriga qulq tutgan inson bormi? Muruvvat, marhamat yo‘lidan yurguvchi qani? Qani o‘z diniy burchini o‘ylaganlar? Qayerda??!

Agar Janobi Payg‘ambarimiz alayhissalom tug‘ilmasidan yetim qolganlari eslansa, har yetimga qilingan yaxshilik Alloh huzurida ul zotga qilingan yaxshilik singari qabul qilinishi o‘ylansa, shunday hodisalar sodir bo‘larmidi? Yosh bo‘lishiga qaramay shuncha yukni ko‘tarib yurgan Ismoil.

Fotimaxonga kelsak, Fotima o‘z yoshligidan kechib, bolali odamga turmushga chiqishi, o‘gay bolalarning injiqliklariga ko‘nishi, har xil gap so‘zlarga chidashi bunday hayotga hozirgi davrda hech qaysi inson rozi bo‘lmasa kerak deb o‘layman. Fotimaning maqsadi o‘zi shu ikki yetimni boshini silash, o‘gay onani qo‘lida qolib qiyalmasligi, Ismoil chekkan azobni u ikki yetim bolalar chekmasin deb rozi bo‘ladi. Fotima bolalarga shu qadar mehr qo‘ydiki, o‘zi yemasa yemas edi, lekin bolalariga berar edi, o‘zi kiymasa ham bolalarga kiydirar edi. Hozirgi paytda bunday insonlarni uchratish qiyin. Hatto o‘z onalar borki, o‘zini o‘ylab bolalari qolib ketadi. Shunday qilib, Fotima turmushga chiqayotgan vaqtida hamma qarshi edi, biroq shularga qaramay turmushga chiqdi. Har qancha qiyinchiliklarga chidab oxiri shu qadar baxtli, shu qadar hayoti go‘zal bo‘ldiki, o‘zi ham, ota-onasi ham Allohga behad shukur aytdi.

Oxirgi xulosada, asar muhim bir g‘oyani ta’kidlaydi: inson hayotidagi kechirim, mehr, o‘zgarish va ichki tinchlikning ahamiyati. Shunday qilib, romanning oxirgi xulosasi shundaki, har bir inson, hatto eng og‘ir sharoitlarda ham o‘zini topishi, o‘zgarish va kechirish orqali yangilanishlarga erishish mumkin. Bu o‘z navbatida, o‘gay ona, o‘gay farzand, sevgi va hamdardlik kabi asosiy mavzularni chuqur anglashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi. O‘gay ona. – Toshkent: “Global Book”, 69 b.
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi – Toshkent. “Book Media Nashir”, 592 b.
3. Yuldashev K. Ynik suz (2006) . – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 548 b.